



## DIAGNOSE THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE CHILD BASED ON DRAWINGS

A.SH.Abduraimova<sup>1</sup>

<sup>1</sup> 2nd year student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4747153>

### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> May 2021

Accepted: 5<sup>th</sup> May 2021

Online: 10<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

personality, differentiated education, modern education, temperament, thinking ability.

### ABSTRACT

*In this article we will diagnose the psychological characteristics of a child based on drawings, methods of teaching thinking through pictures in the formation of the child's personality, ways to determine the child's temperament through drawings, the importance of teaching them to think in the formation of a child's personality. methods for determining their psychological properties depending on the forms are given.*

## BOLANING CHIZGAN SURATLARI ASOSIDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI DIAGNOSTIKA QILISH

A.SH.Abduraimova

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021

Ma'qullandi: 5-May 2021

Chop etildi: 10-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

shaxs, differentsiyalashgan ta'lim, zamonaviy ta'lim, temperament, fikrlash qobiliyati

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada bolaning chizgan suratlarini asosida psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish, bola shaxsini shakllantirishda suratlar orqali fikrlashga o'rgatish usullari, bolaning chizgan rasmlari orqali temperamentini aniqlash yo'llari, bola shaxsini shakllantirishda ularni fikrlashga o'rgatishning ahamiyati, psixologik metodikalar orqali bolalarning surat va shakllarga qarab psixologik xususiyatlarini aniqlash usullarini o'z ichiga o'lgan.*

Har jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash ta'lim-tarbiya sohasi mutaxassislarida oldida turgan dolzarb vazifa ekan, avvalo bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan murg'ak qalb egalarilarining ongi, bilimi va ma'naviyatini to'g'ri shakllantirib borish lozim. Bugungi kun yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishda

tirishqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklarga nisbatan o'ta qiziquvchanligi o'qituvchidan o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, shu jumladan, ta'limiy islohotlarning natijasi yosh avlodning intellektual salohiyat, yuksak aql-zakovatiga, ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida rivojlantirishga, eng yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga



kiritilishiga, uning milliy zaminini mustahkamlashga qaratilganligi bejiz emas.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma'naviy va moddiy sohalarida katta o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Jamiyat tomonidan shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratilar ekan, o'z navbatida shaxs qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ayni vaqtda shaxs qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo'naltirish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

### **Bolaning chizgan rasmlari orqali temperamentini aniqlash**

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki, bir tomondan, shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan, biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarni o'z ichiga olgan substrat – individ ham. Temperament va layoqatlar individning dinamik o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina olimlarning fikrlariga ko'ra, bolaning ta'lim-tarbiyasi rejalashtirishda uning temperament xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Temperament alohida shaxslar xaqida ma'lumot berib, ularning faoliyatlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Temperament xususiyatlarini inobatga olmaslik, bolalarda salbiy xususiyatlarning rivojlanib ketishiga olib kelishi mumkin. Masalan, sangviniklarda – qiziqishlarda beqarorlikka; xoleriklarda – o'zini tuta olmaslikka, cho'rtesarlikka, atrofdagilar bilan chiqisha olmaslikka, yengiltabiatlikka; flegmatiklarda – apatiyaga, bekorchilikka moyillikka, bo'shanglikka; melanxoliklarda – o'ta uyatchanglikka, o'z kuchiga

ishonmaslikka, arazgo'ylikka olib kelishi mumkin.

Temperamentni aniqlash borasida bir qator test va metodikalar mavjud. Lekin ularning hammasini ham bolalarda qo'llab bo'lmaydi. Tasviriy faoliyat orqali bola psixikasining turli tomonlarini – uning ichki dunyosi, kechinmalari va hayotga bo'lgan munosabatini kuzatsa bo'ladi. Bolaning tasviriy faoliyat mashg'ulotlaridagi ishtirokini kuzatganimizda, unda u yoki bu temperament turi ustunlik qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Psixologlarning fikricha, bolaning temperamentini u chizgan rasmlarda yaqqol ko'rinadi. Masalan:

*-Xoleriklarda rasm chizish uchun rangli bo'yoqlar berilsa, ularning chizgan rasmlarida qizil rang yaqqol ustunlik qilishini ko'rishimiz mumkin.*

*-Sangviniklar rasmlarni shiddat bilan boshlab, uncha katta bo'lmagan quvnoq va yorqin rasmlarni chizishadi. Bu rasmni tugatib, darhol boshqa varaqqa o'tib ketishadi*

*-Flegmatiklar o'z navbatida varaqni to'ldirib zerikarli rasmlar chizishadi.*

*-Melanxoliklar deyarli har doim rasmni qog'ozning yuqori qismiga joylashtirishadi. Ular chizgan rasmlar kichik hajmda bo'lib, ko'proq to'q ranglardan foydalanishadi.*

Bolalar chizayotgan asarida nafaqat voqeilikni aks ettiradi, balki asari orqali dunyoni qanday his etishini ko'rsatishga harakat qiladi. 5 yoshli bolalarning rasmlaridan ularning xarakterlariga mos ravishda dunyoni qanday qabul qilishlarini, qiziqish va moyilliklarini, orzulari va xohish istaklarini ko'rish mumkin.

Demak, aynan 5 yoshdan so'nggina rasm orqali bola haqida to'laroq ma'lumot olish mumkin. Sabab, aynan shu yoshga kelib bola rasmlarida milliylikni, oilaviy hayotdan lavhalarini bola hayolidagi obrazlarni aks ettira boshlaydi.



Rasmlar orqali temperamentni aniqlashda bolalarning chizgan rasmlari tahlil qilinadi. Bola bu rasmlarni erkin va mustaqil ravishda chizgan bo'lishi lozim.

### **Bola shaxsini shakllantirishda ularni fikrlashga o'rgatishning ahamiyati**

Barkamol shaxsni shakllantirishda uning mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim tizimida bolalarni chizilgan suratlariga va o'zi chizgan rasmlarga qarab fikrlashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o'rgatish zarurdir.

Fikrlash qobiliyatiga egalik, birinchidan, ma'lumotlarni, axborotlarni o'zlashtirish, ularni o'zaro qiyoslash va umumlashtirishni, ikkinchidan, o'zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda faoliyatni tashkil etishda qo'llay olish tajribasini nazarda tutadi. Bunday ko'nikmani shakllantirish uchun o'quvchilarni turli masalalarni mustaqil yechishga o'rgatish, ularni harakatlar tizimi, tarkibiga ko'ra dastlab oddiy, keyin esa murakkab mashqlarni yechishga o'rgatish muhim.

Samarali fikrlashning eng oliy darajasi ijodiy fikrlash bo'lib, uning vazifasi – ijod qilish, o'ylash, tayyorlash, yangilik yaratish, ixtiro qilish va hokazolardan iborat.

Zamonaviy ta'lim ta'lim oluvchilar oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- tezkor o'zgarishlarga ko'nikish, hayotiy faoliyat, shuningdek, mavjud muammolarni hal qilishda o'zlashtirgan bilimlarini mohirlik bilan qo'llay olish;

- mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, real borliq va yuzaga keluvchi muammolar mohiyatini anglay olish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish;

- egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llashning samarali usullarini topish, yangi g'oyalarni ilg'ab olish va ijodiy fikrlash;

- axborot texnologiyalaridan o'z vaqtida samarali foydalana olish va ularni qo'llay bilish.

Ta'lim oluvchilar, shu jumladan, o'quvchilar bilimlarining chuqur va mustahkamligi faqat ular yig'indisi bilan emas, balki ularning tizimliliigi bilan belgilanadi. Aqliy faoliyat asosini bilish, xotira, yangi g'oya va ularni ifodalash hamda baholash kabi jarayonlar tashkil etadi.

### **Differensiatsiyalashgan ta'lim**

Ta'limni differensiatsiyalash shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati, aqliy rivojlanishi va uning moslashuvchanligi darajasini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni va hajmini belgilash hamda o'qitishning turli shakllaridan foydalanishdir.

Differensiatsiyalashgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yondashilgan ta'limni tashkil etilishini ifodalaydi. Mazkur ta'lim talabalarning bilimlari, malakalari, muayyan fanga qiziqishlari, qobiliyatlari, yoshlari, jinslari, fiziologik holatlari, xarakterlari, ular yashayotgan muhit mohiyati kabilarning hisobga olishini anglatadi. Hozirgi davrda tabaqalashtirilgan ta'lim zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda talaba-yoshlarning imkoniyat va layoqatlarini hisobga olib, o'qitishni tashkil etishda ta'limning turli shakl va metodlarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Differensiatsiyalashgan ta'lim individual yoki guruh shaklida mashg'ulotlarni to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali barcha ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining dinamik rivojlanishiga yordam beradi. Mazkur ta'lim talabalar shaxsining bosqichma-bosqich shakllanib borishini ta'minlaydi.



Yuqoridagi fikrlarga quyidagi mulohazalarimni qo'shimcha qilish o'rinlidir. O'quvchilarda chizilgan rasmlar orqali ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning muhim sharti – o'quvchilarning bilishga yo'naltirilgan faoliyatlarining ijodiy xususiyat kasb etishiga erishish, mazkur jarayonni faollashtirish sanaladi. Bunda o'quvchiga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki:

- o'qituvchilarni talabalar bilan o'zaro hamkorlikka yo'naltirish;

- ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qituvchilarning buyruqlarini bajartirishdan cheklab, ularning faoliyatlarini faollashtirishga tayyorlash.

Demak, bilim olishdagi faollik o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning muhim shartidir.

Yoshlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- har bir mashg'ulotda o'quvchilarning his-tuyg'ularini uyg'otish, o'z faoliyatidan qanoat hosil qilishga erishish;

- o'quvchilarning o'z salohiyati va qobiliyati darajasini bilishga erishish;

- qobiliyatli o'quvchilar bilan individual ishlash dasturlarini tuzish;

- turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirisha olish

Umuman olganda, bugungi kunda shaxsning dunyoqarashi, uning jamiyatda tutgan o'rnini, shaxs va shaxslararo munosabatlarning qaror topishi, shaxs va davlat, shaxs va jamiyat munosabatlari, uning burch va mas'uliyati, ijodiy qobiliyati va intellektual salohiyatini tarkib toptirish muhim sanaladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.
2. Иванов.П.И, Зуфарова.М.Е. Умумий психология. Тошкент: Ўзбек файласуфлари миллий жамияти. 2015.-127 б.
3. Каримова В.М. Психология. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002-101 б.
4. Ниязметова Г.И. Шахс психодиагностикасининг проектив методикалари. Тошкент: Ғофур Ғулом. 2015.-91 б.